




ALISHER NAVOIY

LIRIKASI

- 
- 1 • “Xazoyinu-l-maoniy” kulliyotining yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi.
 - 2 • Debochada kulliyotning tuzilishi va devonlarning yaratilishi bilan bog‘liq masalalar
 - 3 • Kulliyotdagi devonlar tartibi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.

- 1 • Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типовологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2016
- 2 • Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: O‘zbekiston, 2016.
- 3 • Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-20 жиллар. – Т. Фан, 1987-2003..
- 4 • www.ziyo-net.uz
 - www.literature.uz
 - www.kutubxona.uz



TIAME



TILAME

Alisher Navoiy o‘zbek badiiy tafakkurini jahon badiiy tafakkuri darajasuga olib chiqish bilan o‘zining beqiyos, favqulodda ijodiy salohiyat sohibi, ulug‘ mutafakkir, benazir shoir sifatida namoyon etdi. Bu bilan u jahon adabiyotining yirik namoyandalari qatoridan o‘ziga munosib joy egalladi.



TIIAME

Alisher Navoiy devonlari

- 1) **“Ilk devon”** – 1465-1466-yil (mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan. Devonda 391 g‘azal, 41 ruboiy va bir mustazod bor)
- 2) **“Oqquyunli muxlislar devoni”**- 1471-yil Devonda jami 229 ta she'r bor: 224 g‘azal, 1 mustazod, 3 muxammas va 1 tarji'band.
- 3) **“Badoye’ ul bidoya”** (“Boshlanish badiiyliklar”) – 1479-yil (ba’zi manbalarda 1470-1476)
- 4) **“Navodiru n nihoya”** (“Yakunlangan nodirliklar”) - 1486 – 1487-yillar
- 5) **“Xazoyinul maoniy”** (“Ma’nolar xazinasi”) - 1492 – 1498-yillar, 44901 misra she’rni, 4 devonni o‘z ichiga oladi;
- 6) **“Devoni Fony”** – fors tilida yozilgan lirikasi



“Ilk devon”



Shoirning muxlislari 1465–66 yillarda uning she'rlarini to‘plab, devon tuzadilar va bu devon o‘z davrida “xattotlar sulton” nomi bilan mashhur bo‘lgan Sultonali Mashhadiy tomonidan nasta’liq xatida ko‘chiriladi. Navoiyning o‘zi “Badoye’ ulbidoya”ga yozgan debochasida “...*ammo xaloyiq arosida ming bayt-ikki ming bayt ortug‘roq, o‘ksukrakkim o‘zlari jam’ qilib erdilar, bag‘oyat mashhur bo‘lub erdi*”, – deb yozadi. Devon uni nashrga tayyorlagan adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan shartli ravishda “Ilk devon” deb nomlangan bo‘lib; 391 g‘azal, 41 ruboiy, 1 mustazod, 1 muxammas – jami 434 she’rdan tashkil topgan. Devondagi she’rlarning asosiy qismini g‘azallar tashkil etadi. G‘azallar 28 arab harflari bilan tugallanuvchi qofiya hamda radiflar asosida tuzilgan. “Ilk devon” musulmon Sharqida mavjud an'anaga muvofiq hamd g‘azal bilan ibtido topadi.

*Iloho, podshoho, kirdigoro,
Sanga ochug ‘ nihonu oshkoro*



TIIAME

“Oqqyunli

muxlislar

devoni

Navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov jahon qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan nusxalarni o‘rganish asnosida Alisher Navoiyning ixlosmandlari tomonidan tuzilgan yana bir devoni qo‘lyozmasini aniqlab, 2012-yilda fanga ma'lum qildi. Mazkur devon shoirning Oqqyunnlilar sulolasiga (Ozarbayjon va G‘arbiy Eron hududida 1378–1508-yillarda hukmronlik qilgan o‘g‘uz turklari) hukmronligi hududidagi muxlislari tomoni Devon 1471-yil 25-dekabrda Anisiy taxallusi bilan she’rlar yozgan shoir va xattot Abdurahim ibn Abdurahmon Xorazmiy tomonidan Oqqyunnlilar sultanatining markazlaridan biri bo‘lgan Sheroz shahrida ko‘chirilgan. Devonda jami **229 ta she'r** bor: **224 g‘azal, 1 mustazod, 3 muxammas va 1 tarji'band**. Bu majmuadagi 224 g‘azaldan 217 tasi “Badoye’ ul-bidoya”ga va faqat bittasigina “Navodir un-nihoya”ga o‘tgan. Devondagi 85% g‘azal “Ilk devon”da uchramaydi. dan tuzilgan.



Alisher Navoiy devonlari



TIIAME

“Badoye’ ul bidoya”
 (“Boshlanish badiyiliklar”)

“Navodiru n nihoya”
 (“Yakunlangan nodirliliklar”)

1470-76 yillar o’zining ilk devoni «Badoeul-bidoya»ni tuzdi. Devonda 842 ta she’rlari joy olgan. Ulardan 585 tasi g’azal, 3 ta tarjiband, 4 ta muxammas, 2 ta musaddas, 3 ta mustazod, 49 ta qit’a, 78 ta ruboiy, 10 ta chiston, 52 muammo, 10 ta tuyuq, 46 ta fard

1486 – 87-yillar, 693 she’r kiritilgan: 628 ta g’azal, 3 ta mustazod, 3 ta tarjiband, 5 qit’a, 46 ta ruboiy, 1 ta lug’z, 6 ta muammo va 1 ta tuyuq.

“Badoye’ ul-bidoya” (“Badiiylikning boshlanishi”)

Avval budurkim, har kishikim devon tartib qilibdurur, o ‘ttiz ikki harfdinki, xaloyiq iboratida voqi’durur va ulus kitobatida shoyi’, to ‘rt harfg ‘a taarruz qilmaydururlar... (Ҷ – chim, Ѓ – je, Ӯ – gof va Ӯ – lom-alifni ham qo’shgan holda)

- *Yana bukim, har harf g ‘azaliyotining avval bitigan g ‘azal bila o ‘zga g ‘azallar orasida uslub xaysiyatidin tafovut riroyat qilmaydururlar. Muqarrardurkim, har amrda bir lahza Haq subhonahu va taolo hamdidin yo rasul alayhissalom na’tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g ‘ofil bo ‘lmamog ‘liq avlodur...*
- *Yana bir bukim, go ‘yiyo ba’zi el ash’or tahsilidin va devon takmilidin g ‘araz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsud zohiriyl xattu xol ta’rifidin o ‘zga nima anglamaydururlar. Devon topilg ‘aykim, anda ma’rifatomiz bir g ‘azal topilmag ‘ay va g ‘azal bo ‘lg ‘aykim, anda mav’izatangiz bir bayt bo ‘lmag ‘ay...*



“Badoye’ ul-bidoya” (“Badiiylikning boshlanishi”)



TILAME

- *Yana bukim, soyir davovinda rasmiy g‘azal uslubidinkim, shoyi'durur, tajovuz qilib, maxsus nav'larda so‘z arusining jilvasig‘a namoyish va jamolig‘a oroyish bermaydururlar. Va agar ahyonan matlaye maxsus nav'da voqi' bo‘lg‘on bo‘lsa, hamul matla' uslubi bila itmom xil'atin va anjom kisvatin kiydurmaydururlar, balki tuganguncha agar bir bayt mazmuni visol bahorida guloroyliq qilsa, yana biri firoq xazonida xornamoyliq qilibdurur... Ul jihatdin sa'y qilindikim, har mazmunda matla'e voqi' bo‘lsa, aksar andog‘ bo‘lg‘aykim, maqta'gacha surat xaysiyatidin muvofiq va ma'ni jonibidin mutobiq tushkay”.*



TIIAME

“Navodir un-nihoya”

“Xazoyin ul-maoniy”da shunday deydi: “... *ikkinchi devonimdakim, “Navodir un-nihoya”g‘a mashhurdur, rabt-u tartib berib, debochasinda sharh bila aizzayi as‘hobu ajillayi ahbob xidmatlarida arz qilib erdim*”. “Navodir un-nihoya”dagi g‘azallar keyinchalik “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga quyidagi miqdorda joylashtirilgan: 64 g‘azal “G‘aroyib us-sig‘ar”ga, 331 g‘azal “Navodir ush-shabob”ga, 213 g‘azal “Badoye’ ul-vasat”ga va 196 g‘azal “Favoyid ul-kibar”ga kiritilgan. Hazrat Navoiy “Navodir un-nihoya”dagi g‘azallarni “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritganda ko‘pincha ularni tahrir qilgan, ba’zi g‘azallarning faqat matla’sini saqlab qolib, qolgan baytlarini butunlay o‘zgartirgan.

Devon Navoiyning hamd mazmunidagi mashhur g‘azali bilan boshlanadi:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,

Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo.



TIIAME

“Xazoyinu-l maoniy” (1491-1498)

Ma'lumotlarga ko'ra, Abdurahmon Jomiy Alisher Navoiyga Amir Xisrav

Dehlaviy kabi she'r laridan to'rt devon tuzib, ulaning har biriga maxsus nom qo'yishni maslahat beradi. Shundan so'ng Navoiy turkiy she'r larini to'rt devonga ajratadi, ularning har birini inson umrining muayyan paytiga mos keladigan nom bilan ataydi. Navoiy 1491-yilda to'rt devonining birinchi, redaksiyasini uzil-kesil tuzib yakunlagan. 1495-yilga kelib, yangi yozilgan she'r larini qo'shib, to'rt devonni to'ldirgan hamda uni «Xazoyinul-maoniy» nomida majmuaga biriktirib, Husayn Boyqaroga va saroyga topshirgan. 1498- yilda H.Boyqaroga bag'ishlangan uchinchi redaksiyasi vujudga kelgan. Navoiy she'riyatining asosiy qismini g'azallar tashkil qiladi



Devon tuzishdagi o'ziga xoslik



Birinchidan

- Alisher Navoiy “Xazoyinu-l maoniy” devoniga maxsus debocha ham yozib, bu debocha har jihatdan puxta ilmiy risola sifatida shoir lirik merosining eng muhim jihatlarini to‘g‘l mushohada qilishga imkon yaratadi.

Ikkinchidan

- “Xazoyinu-l maoniy” da she’rlarning devonlarga taqsimlanishi va devonlarning nomlanishi shartli bo‘lib, ramziy xarakterga ega.

Uchinchidan

- Devonning oxirgi redaksiyasi 1498-yilga to‘g‘ri keladi. Demak, Alisher Navoiy hayotining so‘hrgi ikki yilda yozgan she’rlari bu majmuaga kirmay qolgan. Shuningdek, “Navodiru-n nihoya”ning debochali haqiqiy varianti aniqlanmagan. Mavjud ikki qo‘lyozmada ham debocha yo‘q, she’rlar miqdori ham turlich.

Janrlar	“G’aroyibus-sig’ar”	“Navodirush-shabob”	“Badoyi ul-vasat”	“Favoyidul-kibar”	Jami
G’azal	650 / 4975	650 / 4958	650 / 5001	650 / 5029	2600 /20003
Mustazod	1 / 7	1 / 7	1 / 7	1 / 7	4 / 28
Muxammas	3 /57,5	3/ 52,5	2 / 30	2 / 37,5	10 /177,5
Musaddas	1 /27	1 / 27	2 / 42	1 / 27	5 / 117
Musamman				1 /28	1 / 28
Tar’jiband	1 / 100	1 / 1003	1 / 56	1 / 110	4 / 369
Tarkibband		1 /56			1 / 56
Masnaviy	1 / 148				1 / 148
Qasida			1 / 91		1 / 91
Soqiynoma				1 / 458	1 / 458
Qit’a	50 /138	50 / 126	60 / 127	50 /112	210 / 503
Ruboiy	133 / 266				133 / 266
Muammo		52 / 54			52 /54
Chiston			10 / 40		10 / 40
Tuyug‘			13 / 26		13 / 26
Fard				86 / 86	86 / 86
Devonda jami 22450,5 bayt yoki 44901 misra	840 5718,5	759 5423,5	740 5420	793 5888,5	3132 22450,5

Janrlar	“G’aroyibus-sig’ar”	“Navodirush-shabob”	“Badoyi ul-vasat”	“Favoyidul-kibar”	Jami
Tar’jiband	1 / 100	1 / 1003	1 / 56	1 / 110	4 / 369
Tarkibband		1 / 56			1 / 56
Masnaviy	1 / 148				1 / 148
Qasida			1 / 91		1 / 91
Soqiynama				1 / 458	1 / 458
Qit’a	50 / 138	50 / 126	60 / 127	50 / 112	210 / 503
Ruboiy	133 / 266				133 / 266
Muammo		52 / 54			52 / 54
Chiston			10 / 40		10 / 40
Tuyug‘			13 / 26		13 / 26
Fard				86 / 86	86 / 86
Devonda jami 22450,5 bayt yoki 44901 misra	840 5718,5	759 5423,5	740 5420	793 5888,5	3132 22450,5



Navoiy she'rlari xronologiyasi



Xronologik davrlar	Yaratilish yillari	Yaratilgan she'rlar soni
Yoshlik lirikasi	1449-1461 (7-20 yosh)	434
Yigitlik lirikasi	1461-1476 (20-35 yosh)	676+28*
O'rta yosh lirikasi	1476-1486 (35-45 yosh)	626+4*
Qarilik lirikasi	1486-1499 (45-60 yosh)	1396



TIIAME

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

(Navoiy. B.V.621.1)

Nasriy bayoni:

Kimki ko‘ngli g‘amu qayg‘uga to‘lib turgan
kishining ko‘nglini ko‘tarsa, vayron bo‘lgan
Ka’bani obod qilgan kabi savobga ega bo‘ladi!



TIIAME

Navoiy, ista ma’ni olamikim, keldi dun,
Har kishikim mayli ushbu dunyoi dun soridur.

(Navoiy, F.K., 184.)

Nasriy bayoni:

Ey Navoiy, sen doimo ma’no olamini istagin!
Sababi, har kimki bu pastkash dunyoga mayl
qilsa, u nokasdir!



TIIAME

Ulug‘lardin nasib istar esang, kasbi kamol etgil,
Nedinkim, anbiyog‘a ilmliq inson erur voris.

(Navoiy. F.K., 91)

Nasriy bayoni:

Ey inson, agar ulug‘ insonlar qatorida bo‘lishni
istasang, komillikni kasb qilgin. Negakim, komil,
ilmli insonlar – olimlar payg‘ambarning
vorislaridur!